

**BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH  
AFZALLIKLARI**

**Fozilova Kamola Ergashevna**

*Toshkent viloyati Zangiota tumani 13-umumta'lim maktabi  
biologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim tizimiga AKT ni joriy qilish ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'yynamoqda. Bu maqsadda turli dasturlar, videodarslar va interaktiv qurilmalardan foydalanish zamонавиу о'qитувчи va pedagoglar uchun asosiy talab. Ushbu maqolada o'qituvchi va pedagoglar uchun muhim bo'lgan interaktiv dasturni biologiya fanlariga tadbiqi haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** explore human anatomy, dasturiy ta'minot, suyak sistemasi, mushak sisitemasi.

Fanlarni o'qitishda zamонавиу kompyuter texnologiyalarini qo'llash dars sifatini bir necha barobarga oshiradi. Yaqqol misol 45 minut doskada tushuntirilgan mavzuni o'quvchi besh minutda You Tube tarmog'idagi videodars orqali undanda yaxshiroq holda tushunib olishi mumkin.

Darslarda foydalanish uchun ko'plab interaktiv dasturlar ishlab chiqilgan. Biologiya, odam va uning salomatligi, zoologiya fanlariga doir interaktiv dasturlar internet tarmog'ida yetartli darajada topish mumkin. Ulardan eng sifatlari va ishonchlisini tanlab olish pedagogning tajribasi va mahoratiga bog'liq. Ushbu maqola orqali biz odam va uning salomatligi fani bo'yicha eng zo'r dasturlardan biri explore human anatomy dasturi bilan yaqindan tanishtirib o'tamiz. Ushbu dastur Rossiya davlatida ishlab chiqarilgan bo'lib, undagi ma'lumotlar bizning ta'lim tizimimizga mos keladi. Dastur quyidagi imkoniyatlarga ega. Darslar 3D animatsiyalar bilan berilgan. 400 detal illyustratsiyaga ega. 5000 tibbiy so'zlar izoxli lug'ati. Tibbiyatga doir 1000 dan ortiq lotincha so'z tarjimasi. Foydalanish uchun qulay interfeysga egaligi har qanday kompyuterdan minimal bilimga ega foydalanuvchilarga qulay. Atlas grafikasi ranglar aniqligi yuqoriligi, tanadagi jarayonlarning video shaklida namoyish etilishi o'rganuvchi uchun qulaylik yaratadi. Dastur quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. Skelet tizimi. Suyaklarning tuzilishi, bosh suyagi va boshqa suyak sistemalari
2. Nafas olish tizimlari
3. Mushak tizimlari
4. Ichki organlar
5. Ayirish sistemalari

Dasturdan dars davomida qanday foydalanamiz? Dastur qulayligi bilan bir watorda, ba'zi bir kamchiliklardan ham holi emas. Masalan, dastur rusiyabon auditoriyaga mo'ljallanganligi uchun interfeysida o'zbek tili mavjud emas. Biz bu kamchilikdan yutuq sifatida foydalanamiz. Yani berilgan so'zlarni hardarsda mavzuga moslab o'quvhilarga lug'at qilib yozdirib ularni so'z boyligini oshirishimiz mumkun. Ikkinchhi kamchilik har bir mavzu illyustratsiyaga parallel ravishda rus tilida mavzuni

tushuntirib ketgan. Biz mavzuni tushuntirish jarayonida dasturdan ovozsiz rejimda foydalanamiz. Bu kamchilikni ham yutuq tomoni bor. Ya'ni o'qituvchi o'zi mavzuga tayyorlanish jarayonida bu ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Dasturni internet tarmog'idan ko'chirib olgach, Human 3D faylini ochamiz. Bu fayl daemon tools dasturi yordamida ochiladi. Dastur o'rnatilgach esa o'zimizga kerakli mavzuni tanlab proyektor yordamida bemalol animatsiya rasm va video holatida foydalanishimiz mumkin. Dasturdan foydalanishning yutuqlari:

1. Ko'rgazmali qurollardan foydalanishga hojat yo'q
2. Har bir mavzudagi organ va detallar kesimlar holatida berilganligi sababli o'quvchiga mavzu haqida real tessavur hosil qilinadi
3. Organlarning funksiyasi va vazifalari 3D animatsiya sifatida berilgan. Bu o'quvchiga aniq funksiyalarini bildirish imkonini beradi.
4. O'quvchilar fanga oid internatsional so'zlarning ma'nosini bilib oladi.
5. Barcha mavzular darslikdan tashqari qo'shimcha bilimlarni berishga mo'ljallanganligi sababli DTS talablarini yuqori darajada o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi.

Yana bir muhim eslatma shundaki, o'qituvchi aynan shu dasturdan foydalanishi shart emas. Bundan boshqa dasturlardan ham bemalol foydalanishi mumkin. Masalan: 3D ANATOMY, ATLAS 3D va boshqa dasturlardan foydalanishi mumkin. O'quvchilar uchun esa mobil telefonlar uchun mo'ljallangan versiyasini tavsiya qilish mumkun. Bu dasturlarni play market orqali ko'chirib olish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Exlore Human Anatomy - 3D (2008)
2. Interaktiv dasturlar va ta'llim. Bishkek 2014.
3. Rizayev "Biologiyada pedagogik texnologiyalar" ma'ruza matni
4. Ochilov "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" - T.2015
5. Biologiya fanidan metodik qo'llanma